



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературе – Language and literature teaching» (<https://tilvaadabiyot.uz>)

<https://oak.uz/pages/4802>

2023-yil. 9-son



4 sentyabr kuni Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi 10 160 ta maktabda 2023-2024 o'quv yilining ilk dars soatlari boshlandi. Joriy o'quv yilida 700 000 nafardan oshiq bolajonlar umumta'lim maktablarining 1-sinfiga qabul qilindi.

Ularga 12 turdagi o'quv qurollari, maktab sumkasi, darsliklar majmuasidan iborat Prezident sovg'alari topshirildi.



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
 НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
 SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot. uz

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Nizomiddin Mahmudov
 Yorqinjon Odilov
 Jabbor Eshonqulov
 Baxtiyor Daniyarov
 Abdurahim Nosirov
 Xolmo'min Fayzullayev
 Oqila Turakulova
 Barno Buranova
 Zulxumor Mirzayeva
 Qozoqboym Yo'ldoshev
 Salima Jumayeva
 Qayum Baymirov
 Manzar Abdulkayrov
 Alijon Safarov
 Madina Nuriddinova
 Latifa Xudayqulova
 Barno Kadirova
 Nargiza Mirzayeva

Axborot hamkorimiz:



Muharrirlar:

Lutfullo JO'RAYEV
 Bibimaryam RAXMONOVA
 Oydin SHUXRATOVA

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
 Gulnoza VALIYEVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
 Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
 Telefon: (98) 121-74-16,
 (71) 233-03-10, (71) 233-03-45, (71) 233-03-67.
 e-mail: til_adabiyot@umail.uz
 veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

M U N D A R I J A

Yorqinoy Ismonova. Romanda roviy bola obrazi	3
Elyor O'ralov. O'zbek tilshunosligi taraqqiyotida lingvistik ekspertizaning o'rni	6
Shohista Shermamatova. O'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish tamoyillari	8
Shohista Shermamatova. Nodiraning «Eshit» radifli g'azalining o'quv adabiyotlarda berilgan talqinlari xususida	10
Shohsanam Bobojonova. Ma'naviyat leksik-semantik kategoriyasining "Axloq" ma'naviy guruhi	12
Dildora Husanova. Erkin Vohidov ijodi sarchashmalarida Navoiyga xos talqinlar.....	
Sevara Parmonova. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" tazkiri - turkiy tazkirachilikning muhim manbalaridan biri sifatida..17	
Xolida Tojiyeva. Lirik asarlar badiiyatini o'quvchilarga yetkazish metodlari.....	
Barnoxon Mamadaliyeva. Malaka oshirish kurslarida global istiqbolga ega bo'lgan o'qituvchilar imidji	
Sitora Saidmuradova. Malaka oshirishdagi o'qituvchilarning kasbiy kompetentlik mezonlarini tarbiyalashda zamonaviy interfaol texnologiyalardan foydalanish modellari	24
Vasila Mamadayupova. Kichik maktab yoshida ingliz tili grammatik ko'nikmalarini shakllantirish	27
Dilorom Tashova. Istiqbol davri o'zbek she'riyatidagi transformatsion jarayonlar: monostix va geometrik shakl	
Fazliddin Sharipov. Yangi - amaliy bosqichda so'z turkumlari va grammatik kategoriyalar tasnifi	32
Sayyora Kurolova. Qolip konstruksiyalarining murakkab gaplarda qo'llanilish mezonlari	3



Gulbahor Ashurova. Chorsham she’rlarida navoiy obrazi talqini	3
Matluba Shukurova. “Ayol” konseptining badiiy matndagi gender o’ziga xosliklari	4
Kamola Abdulloyeva. Muallif modalligi in’ikosi sifatida tasviriy ifodalar	42
Surayyo Raximova. Inson resurslarini boshqarishga bo’lgan yondashuvlar va ularning tahlili	
Madinabonu Irgasheva. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlariga zaxira kadrlar tayyorlash jarayonida ularning liderlik sifatlarini rivojlantirish dolzarb ijtimoiy pedagogik muammo sifatida	47
Mavjuda Alimbekova. Jadid namoyondalari asarlaridagi morfologik va fonetik vositalarning o’ziga xos xususiyatlari	49
Nafosat Raimova. Expression of gender characteristics in anthropocentric proverbs	
Sayyora Yorova. Ingliz va o’zbek tibbiy nutqining pressuppozitiv mohiyati	54
Alijon Allaberdiyev. Buxoro o’g’uz shevalarida ravishdoshning grammatik xususiyatlari	56
Saodat Kambarova. Adabiyot darslarida badiiy-estetik tafakkur tarbiyasi	58
Jamoliddin Nurmukhammadov. Adabiy laboratoriyada kitobxonlik masalalarini tanqidiy o’rganishning ahamiyati	
N. Temirova. Note-taking in consecutive interpretation	6

(ko'mguncha), *bəkkünçə* (bo'kkuncha), *osğunça* (osguncha), *qarağunça* (qaraguncha), *boqqunça* (boqquncha), *saqqunça* (sog'guncha) kabi.

7. Ravishdoshning payt va sabab ma'nosini bildiruvchi *-gaç*, *-gəç*, *-kəç*, *-ğaç*, *-qaç* qo'shimchalari, asosan, o'g'uz shahar tip shevalarida ishlatilishi bilan o'rinlidir: *g'ulgəç* (kulgach), *t'urgəç* (turgach), *qurgəç* (qurgach), *bitkəç* (bitkach), *ketkəç* (ketkach), *q'irgəç* (qirgach), *siqqəç* (siqqach), *y'iqqəç* (yiqqach), *yorgəç* (yorgach), *qolğəç* (qolgach) kabi.

Biroq bu qo'shimchalar o'g'uz shevasini saqlagan aholi vakillari nutqida ishlatilmaydi. O'g'uz lahjalarini o'rgangan F.Abdullayev ham o'z ishlarida bu qo'shimcha haqida to'xtalmagan.

Xulosa qilganda, tarixiy ildizlari Xorazm o'g'uzlari va shuningdek, boshqa o'g'uzlar bilan bir shajaraga birlashuvchi Buxoro o'g'uzlari nutqida qo'llanuvchi ravishdoshning grammatik shakllari tayanch shahar shevasiga yaqinlashib qolganini kuzatishimiz mumkin.

Unli va undoshlar transkripsiyasi:

ı – til oldi unlisi, ĩ – til orqa unlisi, ü – til oldi unlisi, u – til orqa unlisi, ə – til oldi unlisi, a – til orqa unlisi, ɵ – til oldi unlisi, o – til oldi unlisi, e – til oldi unlisi, ɔ – til orqa unlisi, ğ – g' undoshi, ŋ – ng undoshi, ç – ch undoshi, ş – sh undoshi,

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев Ф.А. Хоразм шевалари. II луғат. Хоразм шеваларининг таснифи. – Тошкент: ЎзФА нашр., 1961. – 348 б.
2. Абдуллаев Ф.А. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. – Тошкент: Фан, 1978. – 144-б.
3. Abdurahmonov G', Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: 2008. 62-bet.
4. Аразкулёв С. Говорі туркмен Турткулского района Каракалпакской АССР. Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Ашгабат, 1962. – 30 сах.
5. Иброҳимов С. Ўзбек тилининг Андижон шеваси. – Тошкент, Фан, – 1967, 105-бет.
6. Муҳаммаджонов Қ. Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1981. 44-бет;
7. Тўркмен дилинің сөзлўғи. – Ашгабат: Ўлим, 1962. – 866 сах.
8. Шихиев А. Говорі туркмен Бухарской области Узбекской ССР. Автореф. дисс...канд. филол. наук. –Ашхабад, 1983. – 23 с.

Saodat Kambarova

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti,
ped. fan. bo'y. fals. dok. (PhD)*

ADABIYOT DARSLARIDA BADIY-ESTETIK TAFAKKUR TARBIYASI

Annotatsiya. Maqaloda adabiy ta'lim jarayonida miniatyura asarlaridan foydalanish, o'quvchilarni miniatyura asarlarini o'qishga o'rgatish mazmuni yoritiladi.

Kalit so'zlar. San'at asarlari, doston, miniatyura, tasviriy san'at, musavvir.

Аннотация. В статье рассматривается содержание чтения миниатюрных произведений и обучения учащихся чтению миниатюрных произведений в процессе литературного образования.

Ключевые слова. Произведения искусства, эпос, миниатюры, изобразительное искусство, художник.

Annotation. The article describes the use of miniature works in the process of literary education, the content of teaching students to read miniature works.

Keywords: works of art, epic, miniature, imaginary art, painter.

Adabiyot darslarini estetik yo'nalishdagi fanlar, jumladan, tasviriy san'at bilan bog'lab olib borish o'quvchilarning xalqimiz madaniy rivojlanish tarixi, adabiyoti, san'ati, an'alarini keng ko'lamda o'zlashtirishi barobarida ma'naviyati va badiiy tafakkurini shakllantirishda ham cheksiz imkoniyatlarga ega. Umumiy o'rta ta'lim maktablari adabiyot darslarida Alisher Navoiyning "Xamsa" asarini o'rganish jarayoni, shubhasizki, dostonlarga ishlangan miniatyuralarsiz kechmaydi.

"Navoiy go'zal bir chamanda. U chamanda shodlik va mamnuniyat bilan kezib yurar ekan, uzoqda suhbatlashib o'tirgan bir to'da kishilar jamoasi namoyon bo'ladi. Davradagilardan bir kishi Navoiy tomonga yurib kela boshlaydi, u Navoiy bilan salomlashib, uni davraga taklif qiladi. Bu kishi buyuk Xisrav Dehlaviyning shogirdi atoqli shoir Hasan Dehlaviy ekan. Davraga tomon yurib borayotganlarida, Hasan Dehlaviy Navoiyni suhbat ahli bilan tanishtiradi: to'rda o'tirgan Nizomiy Ganjaviy, uning o'ng tomonida Xisrav Dehlaviy, chap tomonida Abdurahmon Jomiy, ikki tomonda Firdavsiy, Unsuriy, Sanoiy, Hoqoniy, Anvari, Sa'diy va yana boshqa so'z ustalari. Navoiyni ko'rish bilan hamma o'rnidan turadi, uning bir qo'lidan Xisrav Dehlaviy, ikkinchi

qo'ldan Abdurahmon Jomiy tutib, Nizomiy yoniga o'tqizadilar. Nizomiy hol-ahvol so'ragandan keyin, Navoiy "Xamsa"sini ta'riflab, yuksak baholaydi. Qizg'in suhbat boshlanadi" [2; 405-b.].

Navoiyning "Xamsa" yaratish mahorati xususida so'z borganda o'qituvchi o'quvchilarga shoir xayolot olamida ko'z ochgan ushbu voqeani hikoyalab, unga muvofiq tarzda "Navoiy buyuk shoirlar davrasida" miniatyurasidan foydalanishi o'rinni bo'ladi. Bunday usul orqali o'quvchilarning asrlar davomida xalqimiz tomonidan badiiy-estetik, ma'naviy-ma'rifiy qadriyat sifatida ardoqlanib kelinayotgan mazkur san'at turiga bo'lgan qiziqishlari yanada ortishi tabiiy, albatta. San'at turlari vositasida ularning estetik ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni miniatyura asarlariga bag'ishlash va ishni unga jiddiy hozirlik ko'rishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Ijodiy hamda mukammal yondashuvni talab etadigan keng qamrovli tayyorgarlik jarayoni o'qituvchi va o'quvchi zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Bu borada o'qituvchi amalga oshirishi zarur faoliyati turlari:

1) aniq va puxta qo'yilgan ta'lim maqsadlari asosida dars bosqichlarini rejalashtirish; 2) mavzuga doir adabiyotlarni tavsiya qilish, zarur hollarda ularni topishga yordamlashish; 3) miniatyura asarlaridan ko'rgazma tashkil etish; 4) miniatyura asarlari mazmunini o'qish yo'llari xususida tushuncha berish; 5) mavzu uchun ahamiyatli sanalgan miniatyuralardan nusxa ko'paytirish; 6) o'quvchilar faoliyatini to'g'ri yo'naltirish va nazorat qilish va h.k.

O'quvchilar bajaradigan mustaqil ishlar esa:

a) Sharq miniatyura san'atining rivojlanish bosqichlarini o'rganish; b) Navoiy asarlariga ishlangan illyustratsiyalar bilan yaqindan tanishish; d) "Xamsa" dostonlarining o'zlari uchun qadrli o'rinlarini tasvirlab, miniatyuralar ishlashdan iborat.

Ishning ahamiyatli jihatlaridan biri mashg'ulot mavzusining to'g'ri tanlanishi bo'lib, u o'quvchilarni mushtarak g'oyalar atrofida faoliyat yuritishga undaydi, san'at turlarining har biriga xos xususiyatlarni o'zlashtirishga imkon yaratadi. Mashg'ulot maqsadini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilar ongiga miniatyuralar zamiridagi sharqona falsafiy dunyoqarash, odob-axloq me'yorlarini singdirish; milliy ma'naviy merosimizga hurmat hislarini tarbiyalash.

2. Ta'limiy maqsad: miniatyuralarda tasvirlangan ijtimoiy hayot, tarixiy voqealar, qahramonlar ruhiyatini o'rganish asnosida o'quvchilarning ajdodlarimiz turmush tarzi, madaniyati, urf-odatlariga haqidagi bilimlarini kengaytirish.

3. Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning badiiy tafakkuri, estetik didi, san'at asarlarini idrok etish, erkin mushohada yuritish qobiliyatlari, og'zaki va yozma nutq malakalarini o'stirish.

O'quvchilarning Navoiy dostonlariga ishlangan miniatyuralar yuzasidan mustaqil o'rgangan bilimlari, xulosalarini taqdim etish shaklidagi noan'anaviy ijod va ijodiy hisobotlar darsi ta'limning izlanish metodi asosiga quriladi.

Dars jihozlari: "Alisher Navoiy asarlariga ishlangan miniatyuralar" albomi [1; 159-b.], multimedia vositalari, tarqatma didaktik materiallar.

Ko'rgazma tashkil etishda zamonaviy miniatyurachi rassomlar Niyozali Xolmatov, G'ayrat Kamolov, Abror Tursunov ijodlaridan namunalar, xususan, Shomahmud Muhammadjonovning Navoiy asarlariga ishlagan miniatyuralaridan foydalaniladi. Dars tashkil etilgach, tarkibi 5–6 nafar o'quvchidan iborat muayyan nomdagi bir necha guruhlar shakllantirilib, ularning sardor va kotiblari belgilanadi. Guruh sardorining bilimli, zehni, qat'iyatli, kotibining esa jamoa fikrini ma'lum izchillik va imlo qoidalariga rioya qilgan holda qog'ozga tushira olishiga ham e'tibor qaratilmog'i joiz. Tavsiya etilayotgan loyihada o'quvchilar "Xamsa" dostonlari sonidan kelib chiqib, beshta guruhga ajratiladi.

O'qituvchi mashg'ulotni o'qituvchi Sharq miniatyura san'ati tarixi haqidagi kirish so'zi bilan boshlagani ma'qul. O'quvchilarga o'tmishda badiiy adabiyot tasviriy san'at bilan uyg'unlikda ravnaq topganligi; qo'lyozmalar hattot, musavvir, lavvoh, sahhoflar mahorati bilan sayqal topib, mukammal tus olganligi; rassomlar, asosan, Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy, Sa'diy, Jomiy, Navoiy kabi ulug' mutafakkir shoirlar asarlariga illyustratsiyalar ishlaganliklari va Sharq miniatyura san'ati an'analari bugungi kunda ham davom ettirilayotganligi alohida ta'kidlab o'tiladi. So'ngra o'quvchilar amalga oshiradigan faoliyatlariga mutanosiblikda nomlangan va shartlari belgilangan dars bosqichlari ma'lum tartibda amalga oshiriladi. Monitorida shartlarni bajarishga ajratilgan reglament ko'rsatiladi.

"Miniatyura tarixiga bir nazar..." deb nomlangan dastlabki bosqichda guruh sardori yoki a'zosi tanlagan tarqatmalardagi u qadar murakkab tuzilmagan savollar o'quvchilarni fikrlashga da'vat etishi bilan bir qatorda ularning mavzu yuzasidan mustaqil egallagan bilimlarini aniqlash imkonini ham beradi. Javoblarni topishda "Alisher Navoiy asarlariga ishlangan miniatyuralar" albomi so'zboshisidan foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, "Tasviriy san'at" darslarida o'zlashtirilgan bilimlar yodga olinsa ham ijobiy samara kuzatiladi.

1. XV–XVI asrlarning ko'zga ko'ringan iste'dodli musavvir-muzahhiblaridan kimlarning ijodi bilan tanishdingiz?
2. Hirot rassomchilik maktabining asoschisi kim?

3. Kamoliddin Behzodga zamondoshlari tomonidan qanday nisbat berilgan?
4. Navoiyning ilk badiiy bezatilgan “Xamsa”si hozir qayerda saqlanadi?
5. “Xamsa” qo‘lyozmasini bezatishga hissa qo‘shgan kitobat san‘ati ijodkorlari kimlar bo‘lgan? O‘quvchilar javoblarida quyidagilar aks etishi nazarda tutiladi:

1. Jahon madaniyati xazinasini nodir va o‘lmas durdonalar bilan boyitgan Kamoliddin Behzod, Mirak Naqqosh, Qosim Ali, Mahmud Muzahhib va Shoh Muzaffarlar bu davrning yetuk mo‘yqalam sohiblari sanaladi.

2. Yangi bir ijodiy yo‘nalishga asos solgan buyuk rassom Kamoliddin Behzod.

3. U afsonaviy Xitoy rassomi Moniyga qiyoslanib “Moniyi soniy”, ya‘ni “Ikkinchi Moniy” va “Sharq Rafaeli” degan sharaflil nomga sazovor bo‘lgan.

4. Mazkur asar Angliyadagi Oksford universitetining Bodleyan kutubxonasida asrab-avaylanadi. Ushbu qo‘lyozmadagi “Layli va Majnun” dostoni esa Manchester universitetining Djon Riland fondidan munosib o‘rin egallagan.

5. Qo‘lyozma 1492–1493-yillarda hattotlar ustodi Sulton Ali Mashhadiy tomonidan Husayn Boyqaro uchun maxsus ko‘chirilgan. Kitob muqovasini sah Hof Sulton Ali Marviy yasagan bo‘lib, sahifalarini lavvoh Mavlono Yoriy oltin suvi bilan ziynatlagan.

Asosiy “Ranglar bilan tillashib ...” bosqichi o‘quvchilarning mustaqil ijod etishlari va yozma nutq malakalari mukammallashuvini ko‘zlab tashkil etiladi. Jamoalar sardorlari chiqishib “Sher va Durroj” (“Hayrat ul-abror”), “Yosuman Shirinning “o‘limi” haqida Farhodga xabar bermoqda” (“Farhod va Shirin”), “Navfal Majnun huzurida” (“Layli va Majnun”), “Bahrom va Dilorom ovda” (“Sab‘ai sayyor”) hamda “Iskandarning ya‘juj va ma‘jujga qarshi devor qurdirishi” (“Saddi Iskandariy”) miniatyuralarini tanlaydilar. Foydalanishlariga qulay bo‘lishi uchun guruhlar nomlari zikr etilgan asarlarning oldindan tayyorlab qo‘yilgan rangli nusxalari bilan ta‘minlanadi. Ijod bosqichining sharti kartinada aks etgan voqelikni reja asosida yozma talqin etishdan iboratdir. Javob berish mas‘uliyati yuklatilgan guruh vakillari so‘zga chiqishganida navbati bilan monitorda miniatyuralarning kattalashtirilgan hajmdagi ko‘rinishi videoproektor orqali namoyish etib turiladi. Masalan, “Farhod va Shirin” dostoni asosida ishlangan “Yosuman Shirinning “o‘limi” haqida Farhodga xabar bermoqda” miniatyurasini quyidagicha “o‘qish” mumkin:

Reja:

1. Tabiat manzarasi tasviri.
2. Ranglarning voqealar va qahramonlar ruhiyatini yoritishdagi ahamiyati.
3. Zolim Xisravning Yosumanni yollashi.
4. Makkora Farhod huzurida.
5. Farhodni qayg‘uga solgan xabar.
6. Farhod – yovuzlik qurboni.

Ijodkor tafakkuri va taxayyuli ne‘mati bo‘lgan mazkur miniatyura chuqur g‘oyaviy mazmunga ega ko‘rinishlar silsilasidan iborat. Asarda arab alifbosidagi xat namunalari, tabiat tasviri, Farhod va Yosuman qiyofalari gavdalanitirilgan. Yuqorida mahobatli tog‘ cho‘qqilari uzra poyonsiz osmon. U go‘yo Farhod taqdiriga soya solayotgan mudhish falokat xavfini oldindan ko‘rib turganday xomush. Kartinaning asosiy qismini ulug‘vorlik va ezgu ishlarga ruhlantirish timsoli bo‘lgan muazzam tog‘lar egallaydi. Viqorli tog‘lar bag‘rini yorib, ko‘kka bo‘y cho‘zgan azim daraxtlar siymosida insoniyatning oliyjanob maqsadlar yo‘lidagi zahmatlari va oydin hayot sari intilishlari ma‘nosini uqamiz. Agar diqqat bilan razm solinsa, yaxshilik bilan yomonlik o‘rtasidagi umrboqiy kurash kartinaning vertikaliga chap va o‘ng tomonida bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgan hayvonot dunyosi orqali ochib berilganining shohidi bo‘lamiz.

Kiyiklar va tog‘ echkilari beozor, g‘ayratli jonivorlar bo‘lganligi sababli rahmdil, mehnatkash Farhodning ezgu amallariga xayrixohlikda uning orqa fonida aks ettirilgan (chap tarafda). Nigohimizni yanada balandroq cho‘qqilarni ixtiyor etib o‘rmlayotgan bahaybat ayiqning harakatlari o‘ziga tortadi. Uning nimadandir hadiksirab ortiga o‘girilishidan kishi ko‘ngliga shubha-xavotir oralaydi. Qoyalar atrofidagi ungurlarning biridan chiqib kelayotgan sherigini yuqoridan kuzatib turgan yirtqich qoplonning vahimali salobatidan yovuzlik alomatlari seziladi (o‘ng tarafda).

Kartina markaziga Farhodning bunyodkorlik ishlari joylashtirilgan. U bu yerda yuksak aql-idroki, bukilmis irodasi bilan suv chiqarish uchun tog‘ qazib, tosh yo‘nadi. Rassom asar mazmunini boyitish, qahramonlarning nafaqat tashqi qiyofalari, balki ichki qiyofasini yoritish maqsadida ranglardan mohirlik bilan foydalangan. Jumladan, Yosumanning niyati buzuqligi ustidagi kiyimi, qo‘lidagi hassasi, tizzasiga mahkam cho‘nqayib olgan maymun bolasi va u o‘tirgan tog‘ tepasidagi hayvonlarning qora rangda tasvirlanishi orqali ko‘zga tashlanadi. Miniatyurada ko‘k rang qandaydir bezovtalik va ma‘yus holatni eslatadi. Tevarak-atrofdagi dov-daraxtlar, xarsang toshlarning moviy, Farhod egnidagi liboslarning quyuq ko‘k va qora rangda ifodalanishi

uning boshiga yopirilib kelayotgan balo-qazodan kishini ogoh etadi. Chunki bu ranglar asarda qahramonning yorug' olamni tark etishi, motam va g'am-alam ramzidir.

Eron shohi johil Xisrav Arman xalqiga yordam berayotgan Farhodni yo'q qilish payiga tushadi. Qabih maqsadiga yetishish uchun yaramas bir jodugarni yollab, uni Farhod qoshiga jo'natadi. Kartinning pastki qismida Farhod va Yosuman o'rtasida kechayotgan muloqot jarayoni. Farhod ariq qaziyotgan yalanglikdagi katta xarsang ustiga yaxshilab joylashgan makkora yuziga yolg'ondan qayg'uli tus berib, yig'lab, Shirinning "o'limi" haqidagi uydirmani yetkazadi. Yoridan judolik daragi Farhodning yurak-bag'rini qon qiladi. Butun borlig'ini zimistonga aylantirgan mash'um xabardan uning qo'lidagi bolg'a va teshalari xar yonga sochilib ketadi. Suhbatni qoyalar ortidan mo'ralab, yashirincha tinglayotgan notanish bir kimsaning yuz ifodalaridan uning zabun holiga achinish hislari zohir bo'lgan. Hatto u chekkan nola-fig'ondan ma'suma kiyiklar ham sergak tortishgan. Chuqur iztirobga tushgan Farhod boshini toshlarga urib, achchiq ko'z yosh to'kadi va jon taslim qiladi.

Xulosa qilganda, miniatyuralar tilsimini shu tariqa yechish orqali o'quvchilar go'zallik, yaratuvchanlikka muhabbat, razolat va buzg'unchilikka nafrat ruhida tarbiyalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий асарларига ишланган миниатюралар. Тузувчи ва сўз боши муаллифи Ф.Сулаймонова. –Тошкент: Шарк, 2001. 159-б.
2. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Kafolat print company, 2021. 544-б.
3. Сулаймонов А. Миниатюра тўғаракларида Камолиддин Бекзод ҳаёти ва ижодини ўрганиш // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2010. 128–133-betlar.

Jamoliddin Nurmukhammadov,

*Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi bosh mutaxassisi,
ToshDO'TAU tadqiqotchisi*

ADABIY LABORATORIYADA KITOBXONLIK MASALALARINI TANQIDIY O'RGANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada kitobxonlikka oid masalalar yoritilgan. Adabiy laboratoriyada turli maqsadli statistikalar orqali turli toifadagi kishilarning mutolaaga bo'lgan qiziqishlarini aniqlash, tahlil qilish mashg'ulotlarini o'tkazishning amaliy ahamiyati haqida ham so'z boradi. Shuningdek, mahalliy va xalqaro doiradagi so'rovnomalar natijalari tanqidiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Adabiy laboratoriya, kitobxonlik, so'rovnomalar, ta'lim, adabiyot, mashg'ulot, tahlil qilish, audio kitoblar, mutolaa

Abstract. This article covers issues related to reading. The literary laboratory also talks about the practical importance of conducting analysis sessions to determine the reading interests of different categories of people through various target statistics. Also, the results of local and international surveys were critically analyzed.

Keywords: Literary laboratory, reading, survey, education, literature, activity, analysis, audio books, reading

Bugungi shiddatli tez o'zgaruvchan zamon o'quvchilarning ma'naviy butun, ma'rifiy yetuk bo'lib yetishishi uchun ta'lim oldiga juda ko'p talablar qo'yimoqda. Bu talablar ichida o'z ishiga kreativ yondashuv alohida o'rin tutadi.

Zamonaviy dunyoda kitobning ma'naviy hamda axloqiy ozuqa, madaniyat va til ravnaqi uchun asosiy manba, avlodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgan intellektual meros sifatida mavqei hamda ahamiyatini saqlash va hatto tiklashga ehtiyoj sezilayapti. Avvalo, badiiy, ma'rifiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlarni chop etish, ular bilan ta'lim muassasalarini ta'minlash, milliy hamda jahon adabiyoti namoyandalarning asarlarini saralash, tarjima qilish ishlarini puxta o'ylangan tizim asosida tashkil etish lozim. Bundan tashqari, yosh avlodning kitobga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirish kerak¹.

Yosh avlodni tarbiyalashga qaratilgan davlat siyosati borasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"².

Ayniqsa, umumta'lim tizimida ta'lim-tarbiyaning uzviyligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. O'quvchi-yoshlarga adabiy ta'limning tuyg'ular va did kamolotida muhim ahamiyat kasb etishini hayotiy laboratoriya tizimi orqali anglatish, o'qigan badiiy asarini teran mushohada qila olish, badiiy obrazni faqatgina matndagi ko'rinishini tasavvur qila olish emas, balki voqea-hodisa ichida yashay olishga ko'maklashish, qahramonning dardini "3d" formatda his qila olish kabi masalalarning ilmiy-amaliy tomondan o'rganilishi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.